

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY USLUBLAR

ILM-MA'RIFATGA BAXSHIDA UMR

Bahodir Shermuhammadovich Shermuhammadov

Farg'onan davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Ilhomjon Madaminovich To'xtasinov

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor**

Maren Nimeier,

O'zbekistondagi Gyote Instituti rektori

Inson umrining bezagi, mazmuni, salohiyati - uning qilgan ishlarida, amaliy faoliyati natijalarida o'z ifodasini topadi va u jamiyat tomonidan odilona baholanadi, qadrlanadi.

Taniqli metodist olim, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Manzura Saidovna Dadaxodjayeva yarim asrdan ko'proq vaqt davomida ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullandi va yillar davomida xorijiy mamlakatlar va yurtimizda samarali mehnat qilayotgan yuzlab shogirdlar tarbiyaladi. Shu bilan birga ko'plab ilmiy risola va maqolalar yaratdi, yuzlab olimlarni ilm yo'liga olib kirdi.

Ustozning umr yo'lini ko'zdan kechirar ekansiz, faqat ibrat va yaxshiliklarga guvoh bo'lasiz. Maktab ta'limidan so'ng zehnli va ilm olishga ishtiyoqmand Manzura Dadaxodjayeva Toshkent davlat chet tillar pedagogika institutida nemis tili mutaxassisligi bo'yicha tahsil oldi va imtiyozli diplom bilan tamomladi. Dastlab ushbu institutda o'z faoliyatini boshlagan yosh umidli mutaxassis ko'p o'tmay o'sha paytdagi Leningrad, hozirgi Sankt Peterburg shahrida ilmiy stajirovka va keyinchalik aspiranturada tahsil olib, sho'rolar davrida sun'iy to'siqlarni yengib, Sankt Peterburg shahrida chet tili metodikasiga bag'ishlangan ilmiy loyihasini matonat bilan himoya qila oldi.

Zabardast olima Manzura Saidovna Dadaxodjayevaning yuqori tashkilotchilik mahorati, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi nemis tili o'qituvchilari assotsiatsiyasini

barpo etishdagi va uni butun jahon nemis tili o‘qituvchilari assotsiatsiyasiga a’zo qilish borasidagi faolligida yanada yaqqol namoyon bo‘ldi. Ushbu assotsiatsiyaning birinchi raisi sifatida M.S.Dadaxodjayeva O‘zbekistonda nemis tilini o‘qitishni yanada ommalashtirishga va uni jahonga olib chiqishga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Shu o‘rinda uning rahbarligida Germaniyaning bir qator OTM lari, ayniqsa Boxum universiteti bilan hamkorlikdagi loyihalarni e’tirof etish mumkin. Shu kabi hamkorliklar natijasida nafaqat kafedra yoshlari xorijda o‘z malakalarini oshirdilar, balki ko‘plab loyihalar, o‘quv dasturlari, rejalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarini hamkorlikda yaratishga erishdilar.

Bu kabi tahsinga loyiq ishlarni Manzura Saidovna nafaqat O‘zbekiston jahon tillari universitetida, balki Farg‘ona davlat universitetining nemis va fransuz tillari kafedrasida nemis tilini yangi interfaol usullar yordamida o‘qitilishida, yuqori ehtiyojga ega bo‘lib turgan bir vaqtida Farg‘ona vodiysi uchun magistratura yo‘nalishini tashkillanishida, turli ta’limga oid loyihalar olib borilishida jonkuyarlik qilib keldi.

Ma’lumki, chet tillarni o‘rganish va o‘rgatishda chet tili metodikasi alohida o‘rin tutadi. Respublika miqyosida nemis tili o‘qitish metodikasi bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari yo‘nalishidagi ilmiy Kengashda uzoq yillar a’zo sifatida o‘zininig qimmatli maslahatlarini berib keldi va izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilarga rahbarlik qildi.

Jonkuyar olima Manzura Saidovna nafaqat oliy ta’lim yo‘nalishida, balki Xalq ta’limi vazirligi bilan ham mustahkam a’loqa o‘rnata oldi va ikki vazirlik o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashda ham faol ishtirokchi sifatida faoliyat ko‘rsatib keldi. O‘zbekiston o‘z mustaqillagini qo‘lga kiritgandan so‘ng, milliy mentalitetni o‘zida aks ettiruvchi maktab darsliklariga juda katta ehtiyoj sezila boshladи. Shu munosabat bilan O‘zbekiston xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazining taklifiga binoan uning rahbarligida mualliflar guruhi shakllantirildi va bochlang‘ich muktablarning 1,2,3,4 va yuqori sinflarning 9 sinfi uchun nemis tili darsliklari kommunikativ metod asosida yaratildi.

M.S. Dadaxodjayeva nemis tili leksikologiyasi, mamlakatshunoslik va nemis tili o‘qitish metodikasining O‘zbekistonda ravnaq topishiga o‘zining ulkan hissasini qo‘sghan olma sifatida uning porloq xotirasi hamkasblar, zamondoshlari va yosh avlodlar xotirasida mangu qoladi.